O‘ZBEK ETNOSI – ETNOLINGVISTIK BIRLIK SIFATIDA

Ravshanova Feruza Murodullayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek etnosining kelib chiqishiga oid olimlarning mulohazali fikrlari, o‘zbek etnosini o‘rganish davrida nimalarga ahamiyat qaratilganligi hamda etnos so‘zining etimologiyasi, o‘zbek etnosini etnolingvistika bilan bog‘liqlik jihatlari ham ko‘rib o‘tildi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar. Etnos, etnolingvistika, etimologiya, sheva, etnogenez, madaniyat, marosim, an’ana, etnografik, antroposentrik.

Annotatsion: In the article, the thoughtful opinions of scientists regarding the origin of the uzbek ethnos, what is important during the study of the uzbek ethnos, and the etymology of the word ethnos, aspects of the connection between the uzbek ethnos and athnolinguistics were reviewed and analyzed.

Keywords. Ethnos, ethnolinguistics, etymology, dialect, ethnogenesis, culture, ritual, ethnographic tradition, anthropocentric.

Аннотация: В статье были рассмотрены и проанализированы критические мнения ученых относительно происхождения узбекского этноса, важности изучения узбекского этноса, этимологии слова этнос, аспектах взаимоотношений узбекского этноса и этнолингвистики.

Ключевое слово. Этнос, этнолингвистика, этимология, диалект, етногенез, культура, ритуальные, традиции, этнографические, антропоцентрический.

Kirish. Qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o‘zlarining balki shu bilan birga atrofdagilari va uzoq yurtlarda yashovchi el-uluslarning madaniyati, an’ana va marosimlariga qiziqqanlar. O‘zbek tilshunosligida tilni o‘zbek xalqining urf – odatlari, tarixiy an’analari va ma’naviy olami bilan bog‘liq ravishda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, “Tarixiy merosni asrab – avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir[55]”. Har bir xalq umumiy belgilarga ega bo‘lganidek, o‘ziga xos jihatlari ham mavjud bo‘lib, bunday o‘ziga xosliklar muayyan xalqning urf – odatlari hisoblanadi. Urf – odatlar ma’lum bir etnosning o‘ziga xos muhim jihatlarini tilda o‘zini ifoda etadi. Etnos atamasi dastlab yunon tilidagi manbalarda yunon bo‘lmagan xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan. Aynan shu ma’noda mazkur ibora Rim madaniyati va lotin tilida ham uchraydi. XVIII asrning oxiriga qadar etnos atamasi

[55] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.29

nihoyatda chegaralangan holda qo'llanilgan. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda "xalq" (narod) ma'nosida qo'llanila boshlangan[56].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Akademik A. Asqarovning fikricha, etnos — bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi[57]. Etnos nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L.N.Gumilev esa aksincha, etnos ijtimoiy emas, balki biogeografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, deb ta'kidlaydi[58]. Olimlarning bergan fikrlari ham o'rinli, albatta. A.Asqarovning etnosni ijtimoiy hodisa deb xulosalaganlari asoslidir. Etnoslar tarixiy sabablarga ko'ra o'zgarib boradi, negaki ma'lum bir xalq bosqinchilik oqibatida yoki qo'shnichilik sabablariga ko'ra etnoslar o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Etnos tarkibiga qo'shilgan etnografik guruh ma'lum bir tarixiy voqelik, jarayon ta'siridan so'ng uning tarkibiga singib ketadi. Bunday hollarda etnolingvistikaning vazifalari yuzaga chiqa boshlaydi, sababi etnoslarni o'rganish vaqtida ularning qanday tilda so'zlashishi ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Etnosning muhim alomatlaridan biri uning tili bo'lib. Til ko'pincha xalq shakllanishining sharti yoki etnogenezining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Lekin, ba'zi hollarda ayrim etnoslar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlardan ham tarkib topishi mumkin. Bunday vaziyatlarda til etnosga xos muhim xususiyat, etnik mansublik belgisi rolini bajaradi. Qolaversa, shuni ham unutmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Inglizlar va avstraliyaliklar bir tilda ingliz tilida so'zlashadilar. Shuningdek, aynan mazkur tilda AQSh aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, yangi zelandiyaliklar, irlandlar so'zlashadilar. Lekin, amalda ular turli etnoslar hisoblanadilar[59]. Etnosni o'rganishdagi bu kabi holatlarda etnosga mansub geografik hudud, madaniyat, urf-odat va an'ana, marosim kabilarni umumlashtirgan holda o'rganuvchi soha etnolingvistika bo'lib, uning asosiy ahamiyat qaratishi lozim bo'lgan bu etnosdir.

Har bir xalqning etnosini o'rganishda uning tili, udumlari, an'analari kabilarga e'tibor qaratilgan. O'zbek xalqining etnosi ham uzoq yillarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining shakllanib etnos birlik bo'lib shakllanib, bo'lgan davrni olimlar o'rganib, o'zbek xalqining qadimgi ajdodlari kimlar? degan savolga quyidagicha javob berishgan. Ular Movaraunnahr va qadimgi Xorazmning turkiy va eroniy til lahjalarida so'zlashuvchi tub joyli o'troq va chorvador aholisidir. Bu ikki tilda

[56] Ashirboyev.A. Etnologiya. – Toshkent. Iqtisod va moliya. 2018,76 bet
[57] Asqarov.A. Maqola nomi/O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi. – 2002 №4 – 55 b
[58] Гумилев Л.Н. Этносфера. История людей и история природи. – М. 1993, 41 с
[59] Ashirboyev.A. Etnologiya. – Toshkent. Iqtisod va moliya. 2018,79 bet

so'zlashuvchi qabila va elatlarning birinchi bor bir – birlari bilan aralashish jarayoni o'zbek etnogenezining boshlanishi, dastlabki nuqtasi hisoblanadi[60]. Olimning bu fikrlarini sheva va lahjalarda uchraydigan so'zlar orqali anglashimiz mumkin. Ma'lumki Xorazm shevasi o'g'uz lahjasiga mansub bo'lib, turk tili esa o'g'uz lahjasini qamrab oladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida har bir xalq va ular tilining o'zaro muloqat hamda munosabatlar jarayonida madaniy makonga ega ekanligi, ma'naviy va ma'rifiy jarayonlarda shakllanib, rivojlanganligi, aql – idrok manbayi bo'lishi, milliy – madaniy an'analarga asoslanganligi, shu bilan birga madaniy fondning birlamchi hamda asosiy element ekanligi ya'ni milliy o'ziga xoslikni aks ettirgan lug'aviy birliklar asosan tilshunoslik fanining lingvokulturologik, etnosemantik, antropolingvistik va etnolingvistik yo'nalishlarida tadqiq etilmoqda. Shu tarzda tilshunoslik fanining rivojlanishi va taraqqiyoti tufayli etnoslarning moddiy hamda ma'naviy madaniyatini ijtimoiy munosabatlar asosida o'rganish natijasida etnografik lakunalarni umummilliy (etnik), hududiy va dialektal tiplarga bo'lib, ilmiy – nazariy hamda ilmiy – amaliy asoslarda tavsif va tahlil etib, tasniflash imkoni yuzaga keldi. Buning oqibatida muayyan hudud shevasiga mansub bo'lgan etnografizmlar o'sha joyda shakllangan moddiy va ma'naviy madaniyatning semiotik, ya'ni ramziy tili ekanligi ham aniqlanib, ular ilmiy nuqtai nazardan o'rganilmoqda.

Til etnos hamda madaniyatning yaxlit tizim ekanligini isbotlagan zamonaviy tadqiqotlarning ilmiy tahlil va xulosalari, shuningdek, ularda o'rinli qo'llanilgan ilmiy – nazariy konsepsiyalarning mohiyati turkiy tillarning etnolingvistikasi, shu jumladan, to'y marosimlarining mazmun – mohiyatini o'zida ifodalovchi dialektal leksik – semantik tabiati va lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirishga ilmiy – nazariy hamda ilmiy – amaliy hujjatlardan metodik va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda dunyo tilshunoslik fani milliy tillarning leksik tarkibini, lug'aviy imkoniyatlarining darajalarini xalq madaniyati, ma'naviy qadriyatlar, xalqning tafakkur tarzi va tarixiy – milliy an'analari bilan bog'lab tadqiq etish yetakchi ilmiy – nazariy konsepsiyalardan biriga aylanib borayotganligi tilshunoslik fanida psixolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi yangi sohalarning paydo bo'lishi hamda rivojlanishiga ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Har bir xalq tilini to'liq, haqiqiy ma'noda bilishi uchun uning ichki qonuniyatlarini aniqlashning o'zi yetarli emas. Uning asosiy mabayi shu tilda so'zlashuvchi etnoslarning rivojlanish tarixi va taraqqiyoti, kundalik hayotida shakllangan an'anaviy madaniyati, ma'naviy olami va badiiy tafakkuri bilan bevosita bog'liqligi til materiallari tahliliga lingvokulturologik, lingvogeografik va

[60] Аскаров.А. Ўзбек халки етногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий- методологик масалалари. – Тошкент. 2004

etnolingvistik xususiyatlarni ham hisobga olgan holda yondashishni talab qiladi. Shuning uchun ham xalq dunyoqarashini va madaniyatini tilning leksik boyligi va so‘zning nutqiy imkoniyatlari bilan bog‘liq tarzda tadqiq qilish o‘zlikni ifoda etishning muhim shakli hisoblanib, tilning milliy mohiyatini aniqlashda asosiy mezon sanaladi. Tilning leksik boyligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan, xalqning milliy madaniyatini ko‘rsatuvchi manbalardan biri – muayyan xalqning an’analarini, turmush tarzining barcha jihatlarini o‘zida qamrab olgan etnografizmlar sanaladi. Har bir millatga xos lingvomadaniy xususiyatlar ular foydalanadigan tilning etnografik leksikasi majmuyida namayon bo‘ladi.

Birgina o‘zbek xalqining o‘zida ma’lum bir hududlarda yashovchilarning o‘ziga xos moddiy va ma’naviy belgilarni madaniyatida saqlagan, uzoq davrlar mobaynida hududiy – areal xususiyatlar kasb etgan ushbu hududdagi to‘y marosimlarini etnolingvistik tabiati va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganilayotgan joyga xos madaniy jarayon, madaniy makon, mentalitet, madaniy an’ana madaniy meros va madaniy fond tushunchalariga tayanilgan holda tadqiq qilishda foydalaniladi.

O‘zbek xalqining “*Sovchilik*” marosimi to‘y boshlanishiga sabab bo‘luvchi marosimlardan biri deyishimiz mumkin. O‘zbekistonning barcha hududlarida sovchilikning maqsadi bitta ya’ni kuyov tomonidan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs. (Mulla Abdurahmon xotinlar so‘ziga ishonmay Solih mahdumning o‘z oldiga mahalladan bir ikkita keksani sovchi qilib yubordi. (Abdulla Qodiriy. “O‘tgan kunlar”)[61].

Odatda sovchilar kayvoni, el orasida obru – e’tiborli, tagli – tugli, oqilu fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og‘ir, ma’suliyatli. Sovchilikning gap so‘zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo‘lmog‘i lozim. Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo‘lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo‘lini so‘rab borishadi[62]. Bo‘lajak kelinning roziligini olgan sovchilarning o‘zlari bilan olib kelgan shirinlik, mato, ro‘mol bo‘lsa olib qolinadi, bu qiz tomonning rozilik belgisidir. Andijon viloyatida kelin bo‘ladigan qizga *oq ro‘mol* o‘rashadi. Oq rang ostida poklik, yo‘li ochiqlik, ozodalik, yaxshilik, yaxshi hayot kechirish kabi ma’nolarni bildiradi. Bo‘lgusi kelinga oq ro‘mol o‘rash ma’nosi ostida yangi hayotda unga poklik, yaxshiliklar tilash kabi ma’nolarni beradi. Vaholanki ba’zi hududlarda oq ro‘mol o‘rash bu a’za bo‘lganda o‘raladigan ro‘moldir. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida vafot etgan xonadon vakillari *oq ro‘mol* o‘rashadi. Tilshunoslikda etnolingvistik tahlil jarayonida o‘zbek xalqning *oq o‘rar*

marosimining ikki xil ma’noda, bir – biriga zid ma’noda qo‘llanishi kabi masalalarni o‘rganish etnolingvistika sohaning vazifalariga kiradi. Mana shu o‘rinda marosimlarni etnolingvistik tahlil qilish yuzaga chiqa boshlaydi

[61] Ш. Рахматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент. Университет. 2000
[62] Mahmud S. O‘zbek udumlari. – Toshkent . Adolat. 2004,101 bet

O‘zbek tilining barcha shevalarida uchraydigan "*To‘qqiz to‘yi*", "*Oq o‘rar*", "*Non sindirar*", "*Qiz to‘yi*" kabi marosimlar mavjud bo‘lib, bu marosimni ba’zi joylarda to‘yda ishlatiladigan narsalarga qarab, ba’zi joylarda esa kuyov tomonidan qiz ya’ni kelinga qilinadigan buyumlar nomi bilan atalgan.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida "*To‘qqiz to‘y*" nomi bilan to‘y qilinsa, Chiroqchi tumanida esa "*Non sindirar*" nomi bilan o‘tkazilinadi. Garchi, bu to‘ylarda o‘tkazilinadigan an’ana va udumlar bir xil bo‘lsada, ammo ularning nomlanishi har xil. Kitob tumanida "*To‘qqiz to‘y*" deb, bo‘lajak kelinga nikoh to‘yidan oldin, kuyov tomonidan kelinga qilinadigan sarpolarni "*To‘qqiz*" deb nomlashadi. Shu sababli ham bu to‘yning nomi "*To‘qqiz to‘y*" deb nomlanadi. (Qashqadaryo viloyatining Kitob va Shahrisabz tumanlarida bu marosim keng miqyosda nishonlanadi, deyarli barcha bu to‘yni o‘tkazishadi. Bozorlarida ham biron bir kelinlar kiyadigan ko‘ylakni pulini so‘rasa, savdogarlar to‘qqizgami deyishadi.) Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham kelinga qilinadigan sarpolarni "*To‘qqiz*" deb nomlashadi, ammo to‘y nomini "*Non sindirar*" deb atashadi. Bu marosim ham Kitob tumanidagi to‘y bilan deyarli bir xil tarzda kechadi. Chiroqchi xalqi to‘yga kelgan yoshi ulug‘lar tomonidan nikoh to‘yini o‘tkazish haqida gaplashib bo‘lgandan so‘ng, yoshlarni bir – biri bilan unashtirib qo‘yish uchun ikkita nonni bir qilib sindirishadi. Demak, Kitob tumanidagi aholi to‘yda qilinadigan, sarponing nomlanishiga va to‘yda to‘qqiz kelishiga ahamiyat qaratgan holda to‘y nomini nomlashgan. Chiroqchi tumanidagilar esa to‘yda sindiriladigan nonga ahamiyat qaratib marosim nomini "*Non sindirar*" deb nomlashgan. Bu viloyatda yana "*Fotiha to‘yi*" deb ataladigan, marosim mavjud bo‘lib bunda ham yuqoridagi holatlar uchraydi. Bu haqida S.Davlatovning dissertatsiyalarida ham keltirilgan. To‘yga kelgan tomonidan oila qurayotgan yoshlarga baxt, saodat tilab, rishtalarni mustahkam bog‘lanishini tilab olqish – fotiha o‘qiydi. Keyin davraning eng obro‘yli, yoshi ulug‘qo‘liga bir juft nonni olib, barcha guvohligida ularni teng sindiradi. Sindirilgan nonning bir qismi shu davrada o‘tirganlarga, qolgan qismi esa ayollarga ulashiladi. Buning ma’nosi shuki, non tiriklikning eng buyuk ne’mati. Unashtirilayotgan yoshlarning nondek aziz bo‘lib yurishlari va o‘z qadr – qimmatlarini yo‘qotmasliklari istagi ushbu marosimda saqlanib qolgan[63]

Xulosa. Hozirgi zamon tilshunosligida har bir xalq va ular tilining o‘zaro muloqat hamda munosabatlar jarayonida madaniy makonga ega ekanligi, ma’naviy va ma’rifiy jarayonlarda shakllanib, rivojlanganligi, aql – idrok manbai bo‘lishi, milliy – madaniy an’analarga asoslanganligi, shu bilan birga madaniy fondning birlamchi hamda asosiy element ekanligi, ya’ni milliy o‘ziga xoslikni aks ettirgan lug‘aviy birliklar asosan tilshunoslik fanining lingvokulturologik, etnosemantik,

[63] Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори. Филол.фанлари номз.дисс. – Тошкент, 1996.

antropolingvistik va etnolingvistik yo‘nalishlarida tadqiq etilmoqda. Shu tarzda tilshunoslik fanining rivojlanishi va taraqqiyoti tufayli etnoslarning moddiy hamda ma’naviy madaniyatini ijtimoiy munosabatlar asosida o‘rganish natijasida umummilliy (etnik), hududiy va dialektal tiplarga bo‘lib, ilmiy – nazariy hamda ilmiy – amaliy asoslarda tavsif va tahlil etib, tasniflash imkoni yuzaga keldi.

Etnolingvistika murakkab yo‘nalish bo‘lib, uning o‘rganish sohasi til, madaniyat, folklor, mifologiya kabilarni o‘zida aks ettiradigan vosita va uslublar (so‘z, mavzu, marosim) majmuyi hisoblanadi. Shu bilan birga, etnolingvistika tilshunoslik, etnografiya, xususan, sotsiologiya bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning madaniy hayoti, turmush tarzi haqida bilim beruvchi fanlarning tayanadigan integratsiyalangan bilim va ma’lumot beruvchi, ko‘plab zamonaviy murakkab usullardan foydalanadigan yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.29
2. Ashirboyev.A. Etnologiya. Toshkent. Iqtisod va moliya. 2018 76 bet
3. Asqarov.A. O‘zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba’zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O‘zbekiston tarixi. – 2002 №4 – 55 b
4. Гумилев Л.Н. Этносфера. История людей и история природи. М, 1993. С 41
5. Ш. Рахматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент. Университет. 2000
6. Mahmud S. O‘zbek udumlari. Toshkent . Adolat. 2004. 101 bet
7. Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори. Филол.фанлари номз.дисс. – Тошкент, 1996.
8. Потебня А. Мысль и язык. Оглавление. Философия языка и мифа. – Харьков: Мирный труд, 1913. http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/poteb/intro.php; Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, [1946] 1986. – 366 с. http://royallib.ru/; Пятигорский А.М. Мифологическиеразмышления.http://modernlib.ru/books/pyatigorskiy_aleksandr_moiseevich/mifologicheskie_razmishleniya